

AGLOMERATSIYALARNI REJALASHTIRISH VA BOSHQARISHDA AQSH TAJRIBASI VA UNDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Shohruh Mardonov doktorant

TDSHU

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17061745>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Amerika Qo'shma Shtatlarida aglomeratsiyalarni rejorashtirish va boshqarish tajribasi hamda bu tajribalardan O'zbekiston shahar aglomeratsiyalarini rivojlantirishda foydalanish istiqbollari tahlil qilindi. AQShning metropoliten hududlarini rejorashtirish va boshqarishda qo'llaniladigan asosiy yondashuvlar, institutsional tuzilmalar va moliyaviy mexanizmlar o'r ganildi. AQSh tajribasidan kelib chiqqan holda, O'zbekistonda aglomeratsiyalarni samarali boshqarish uchun institutsional, huquqiy va moliyaviy sohalarda tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekiston shahar aglomeratsiyalarini rivojlantirishda mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish, mahalliy hokimiyat organlarining rolini oshirish, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish hamda shahar rejorashtirishda jamoatchilik ishtirokini ta'minlash zarur.

Kalit so'zlar: aglomeratsiya, shahar rejorashtirish, metropoliten hududlari, shahar boshqaruvi, mintaqaviy hamkorlik, O'zbekiston, AQSh tajribasi.

Аннотация. В данной статье проанализирован опыт планирования и управления агломерациями в Соединенных Штатах Америки, а также перспективы использования этого опыта в развитии городских агломераций Узбекистана. Изучены основные подходы, институциональные структуры и финансовые механизмы, применяемые в планировании и управлении метрополитенскими территориями США. На основе американского опыта разработаны рекомендации по эффективному управлению агломерациями в Узбекистане в институциональной, правовой и финансовой сферах. Согласно результатам исследования, для развития городских агломераций Узбекистана необходимо усилить региональное сотрудничество, повысить роль органов

местного самоуправления, развивать государственно-частное партнерство и обеспечить общественное участие в городском планировании.

Ключевые слова: агломерация, городское планирование, метрополитенские территории, городское управление, региональное сотрудничество, Узбекистан, опыт США.

Abstract. This article analyzes the experience of planning and managing agglomerations in the United States of America and the prospects of using this experience in developing urban agglomerations in Uzbekistan. The main approaches, institutional structures, and financial mechanisms used in planning and managing metropolitan areas in the USA have been studied. Based on the US experience, recommendations have been developed for effective management of agglomerations in Uzbekistan in institutional, legal, and financial spheres. According to the research results, to develop urban agglomerations in Uzbekistan, it is necessary to strengthen regional cooperation, increase the role of local government bodies, develop public-private partnerships, and ensure public participation in urban planning.

Keywords: agglomeration, urban planning, metropolitan areas, urban governance, regional cooperation, Uzbekistan, US experience.

Kirish. Shahar aglomeratsiyalari dunyo iqtisodiyotining asosiy harakatlantirgichi hisoblanib, global YIMning 60 foizdan ortig‘ini ishlab chiqaradi (UN Habitat, 2024). Ma'lumotlarga ko‘ra, 2025 yilga kelib dunyo aholisining 60 foizdan ko‘prog‘i shahar hududlarida istiqomat qiladi va bu ko‘rsatkich 2050 yilga borib 70 foizga yetishi kutilmoqda (BMT, 2023). Shahar aglomeratsiyalarining bunday jadal o‘sishi transport, atrof-muhit, turar-joy, kommunal xizmatlar va ijtimoiy infratuzilma bilan bog‘liq ko‘plab muammolarni keltirib chiqarmoqda.

O‘zbekiston ham urbanizatsiya jarayonlarining tezlashuvi bilan bog‘liq xuddi shunday muammolarga duch kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 10 yanvardagi "O‘zbekiston Respublikasida urbanizatsiya jarayonlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-6060-son Farmoniga muvofiq, mamlakatda shahar aglomeratsiyalarini shakllantirish va rivojlantirishga alohida

e'tibor qaratilmoqda. Bu o'rinda Toshkent, Samarqand, Namangan, Andijon, Farg'ona va boshqa yirik shaharlar atrofida shakllanayotgan aglomeratsiyalarni samarali rejalashtirish va boshqarish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

AQSh aglomeratsiyalarni rejalashtirish va boshqarish bo'yicha boy tajribaga ega bo'lib, u yerda metropoliten hududlarini rivojlantirish, transport infratuzilmasini yaxshilash, atrof-muhit muhofazasi va iqtisodiy o'sishni ta'minlash bo'yicha samarali mexanizmlar ishlab chiqilgan. Bu tajribalarni o'rganish va O'zbekiston sharoitlariga moslashtirilgan holda qo'llash mamlakatimizda shahar aglomeratsiyalarini barqaror rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar sharhi. AQShda aglomeratsiyalarni rejalashtirish va boshqarish tajribasiga oid ilmiy maqolalar, monografiyalar, hisobotlar va boshqa materiallar o'rganildi. Shuningdek, O'zbekistonda shahar aglomeratsiyalarini rivojlantirishga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar va ilmiy ishlar tahlil qilindi. AQSh va O'zbekiston shahar aglomeratsiyalarini rejalashtirish va boshqarish tizimlarining o'ziga xos xususiyatlari qiyoslab o'rganildi. AQSh va O'zbekiston shahar aglomeratsiyalarining demografik, ijtimoiy-iqtisodiy va hududiy rivojlanish ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Shahar rejalashtirish va boshqarish sohasidagi ekspertlar bilan suhbatlar o'tkazilib, mavjud muammolar va ularni hal etish yo'llari bo'yicha fikr-mulohazalar o'rganildi. O'zbekistonda AQSh tajribasini qo'llashning kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va xavflari aniqlandi.

Tadqiqot doirasida AQShning 25 ta yirik metropoliten hududi va O'zbekistonning 10 ta shahar aglomeratsiyasi o'rganildi. Ma'lumotlar AQSh Aholi ro'yxati byurosi, AQSh Metropoliten rejalashtirish tashkilotlari, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi ma'lumotlaridan olindi.

AQShda metropoliten hududlarini rejalashtirish va boshqarish federal, shtat va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan amalga oshiriladi. Federal darajada shahar rivojlanishi bilan Uy-joy qurilishi va shahar rivojlanishi vazirligi (HUD)

shug‘ullanadi. Bu vazirlik shahar rejalashtirish dasturlarini moliyalashtiradi va texnik yordam ko‘rsatadi, lekin bevosita rejalashtirish jarayoniga aralashmaydi.

AQShda metropoliten hududlarini rejalashtirish va muvofiqlashtirish uchun 400 dan ortiq Metropoliten rejalashtirish tashkilotlari (Metropolitan Planning Organizations, MPO) faoliyat ko‘rsatadi. Bu tashkilotlar 1962 yilda federal qonun bilan tashkil etilgan bo‘lib, aholisi 50 ming kishidan ortiq bo‘lgan har bir metropoliten hududi uchun majburiy hisoblanadi (U.S. Department of Transportation, 2023).

MPOlar quyidagi vazifalarini bajaradi:

- Transport rejalashtirish va muvofiqlashtirish;
- Yer-mulkdan foydalanishni rejalashtirish;
- Atrof-muhit muhofazasi;
- Iqtisodiy rivojlanish;
- Turar-joy qurilishi.

AQShda metropoliten hududlarini boshqarishning quyidagi asosiy modellari qo‘llaniladi:

Bir bosqichli boshqaruv modeli – shahar va grafliklar birlashib yagona mahalliy hokimiyat organini tashkil etadi. Masalan, Nashville-Davidson (Tennessee), Indianapolis-Marion (Indiana), Louisville-Jefferson (Kentucky). Bu model eng samarali hisoblanadi, chunki butun metropoliten hududi bo‘yicha yagona siyosat yuritiladi va resurslar oqilona taqsimlanadi.

Ikki bosqichli boshqaruv modeli – metropoliten hududidagi mahalliy hokimiyat organlari (shaharlar, grafliklar) o‘z mustaqilligini saqlab qoladi, ammo metropoliten darajasidagi masalalarni hal qilish uchun mintaqaviy hokimiyat tuziladi. Masalan, Portland metropoliten hududi (Oregon), Minneapolis-St. Paul (Minnesota). Bu model mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda mintaqaviy muammolarni hal qilish imkonini beradi. Sharhnomaviy hamkorlik modeli – mahalliy hokimiyat organlari o‘z mustaqilligini to‘liq saqlab qoladi, ammo ayrim vazifalarni bajarish uchun o‘zaro sharhnomalar tuzadi. Masalan, Los-Anjeles hududi

(Kaliforniya), Chikago hududi (Illinoys). Bu model eng keng tarqalgan bo‘lib, moslashuvchan hisoblanadi.

AQShda metropoliten hududlarini rivojlantirish uchun quyidagi moliyalashtirish mexanizmlari qo‘llaniladi:

Federal grantlar va subsidiyalar – HUD, DOT (Transport vazirligi), EPA (Atrof-muhitni muhofaza qilish agentligi) va boshqa federal agentliklar tomonidan ajratiladigan mablag‘lar.

Shtat subsidiyalari – shtatlar tomonidan metropoliten hududlarini rivojlantirish uchun ajratiladigan mablag‘lar.

Mahalliy soliqlar – ko‘chmas mulk solig‘i, savdo solig‘i, daromad solig‘i va boshqalar.

Maxsus soliq okruglari (Special Tax Districts) – ma'lum bir hududda maxsus loyihalar uchun qo‘sishimcha soliq yig‘ish mexanizmi.

Impact fees (Ta'sir to‘lovlari) – yangi qurilish hisobidan infratuzilmani rivojlantirish uchun yig‘iladigan to‘lovlari.

Davlat-xususiy sheriklik (Public-Private Partnerships, PPP) – davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik asosida loyihalarni amalga oshirish.

1-jadval

AQShning yirik metropoliten hududlari demografik va iqtisodiy ko‘rsatkichlari (2023 yil)¹

Nº	Metropoliten hudud	Aholi soni (mln)	Maydoni (km ²)	Aholi zichligi (kishi/km ²)	YIMning mamlakat YIMidagi ulushi (%)
1.	Nyu-York	19.8	17,400	1,138	8.2
2.	Los-Anjeles	13.2	12,500	1,056	5.1
3.	Chikago	9.5	10,900	872	3.6
4.	Dallas	7.7	24,100	320	3.1
5.	Hyuston	7.2	25,300	285	3.0
6.	Vashington	6.4	15,600	411	2.9
7.	Mayami	6.2	15,900	390	2.4

¹ U.S. Census Bureau, 2023; Bureau of Economic Analysis, 2023.

8.	Filadelfiya	6.1	12,600	484	2.3
9.	Atlanta	6.1	21,700	281	2.1
10.	Boston	4.9	11,700	419	2.1

AQSh metropoliten hududlarida aholi soni va iqtisodiy faollik yuqori darajada to‘plangan. Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, mamlakat aholisining deyarli 30 foizi va YIMning 35 foizga yaqini 10 ta yirik metropoliten hududiga to‘g‘ri keladi.

O‘zbekiston urbanizatsiya darajasining o‘sishi shahar aglomeratsiyalarining shakllanishiga olib kelmoqda. Bugungi kunda O‘zbekistonda asosan quyidagi shahar aglomeratsiyalari shakllanmoqda: Toshkent, Samarqand, Namangan, Andijon, Farg‘ona, Buxoro, Qarshi. Bu aglomeratsiyalardan eng yuqori o‘rinda turuvchisi bu Toshkent hisoblanadi. Bunda hozirgi kunda 4.2 mln atrofida doimiy aholi istiqomad qilib kelmoqda. Bu esa mamlakat jami aholisining 11 foizi demakdir. Hozirgi kunda mamlakat YaIM ning deyarli 20 ofizi aynan shu aglomeratsiyaning hissasiga to‘g‘ri keladi. Bundan ko‘rininb turibdiki O‘zbekiston uchun Toshkent aglomeratsiyasi iqtisodiy lokomotiv vazifasini bajarmoqda. Undan keying o‘rnlarni esa Samarqand va Namangan aglomeratsiyalari mos ravishda 6.2 va 4.7 foizlik ulush bilan egallab turibdi (2-jadval).

2-jadval

O‘zbekistondagi shahar aglomeratsiyalarining demografik va iqtisodiy ko‘rsatkichlari (2023 yil)²

Nº	Aglomeratsiya	Aholi soni (mln)	Maydoni (km ²)	Aholi zichligi (kishi/km ²)	YIMning mamlakat YIMidagi ulushi (%)
1.	Toshkent	4.2	893	3,583	18.5
2.	Samarqand	1.4	420	3,333	6.2
3.	Namangan	1.1	390	2,821	4.7
4.	Andijon	1.0	350	2,857	4.2
5.	Farg‘ona	0.9	380	2,368	3.8
6.	Buxoro	0.6	225	2,667	2.5

² O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, 2023.

7.	Qarshi	0.4	197	2,030	1.9
----	--------	-----	-----	-------	-----

O‘zbekistonda shahar aglomeratsiyalarini rivojlantirish bo‘yicha muhim qadam 2019-yildan boshlab amalga oshirildi. 2019-yil 10-yanvardagi PF-5623-son "O‘zbekiston Respublikasida urbanizatsiya jarayonlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Prezident Farmoniga muvofiq 2030-yilga qadar urbanizatsiya darajasini 60 foizga yetkazish maqsadi qo‘yildi.

O‘zbekistonda shahar aglomeratsiyalarini boshqarish tizimi hali shakllanish bosqichida. Bugungi kunda quyidagi muammolar mavjud:

Aglomeratsiyalarni boshqarishning aniq huquqiy asoslari yo‘qligi;

Shahar va qishloq tuman hokimliklari o‘rtasida hamkorlikning yetishmasligi;

Aglomeratsiyalarni rivojlantirish dasturlarining moliyaviy ta'minoti pastligi;

Shahar rejalashtirishda jamoatchilik ishtirokining sustligi;

Aglomeratsiyalar darajasida rejalashtirish va muvofiqlashtirish uchun institutsional tuzilmalarning yo‘qligi.

AQSh tajribasining o‘rganishi O‘zbekistonning shahar aglomeratsiyalarini rivojlantirish uchun qimmatli xulosalar chiqarish imkonini beradi. Qiyosiy tahlil natijalariga ko‘ra, quyidagi muhim farqlarni qayd etish mumkin: AQShda metropoliten hududlarini boshqarishning turli modellari (bir bosqichli, ikki bosqichli, shartnomaviy) qo‘llaniladi. O‘zbekistonda esa yagona model yo‘q, aglomeratsiyalar shaharlar va qishloq tumanlarining oddiy to‘plami sifatida qaraladi. AQShda metropoliten hududlarini rejalashtirish va muvofiqlashtirish uchun maxsus tashkilotlar (MPO) mavjud. O‘zbekistonda bunday tashkilotlar yo‘q. AQShda metropoliten hududlarini rivojlantirish uchun turli xil moliyalashtirish mexanizmlari (federal grantlar, mahalliy soliqlar, maxsus soliq okruglari, ta’sir to‘lovleri, davlat-xususiy sheriklik) qo‘llaniladi. O‘zbekistonda esa asosan markaziy byudjetdan ajratiladigan mablag‘larga tayaniladi. AQShda metropoliten hududlarini rejalashtirish jarayonida jamoatchilik ishtiroki keng yo‘lga qo‘yilgan. O‘zbekistonda esa bu soha hali rivojlanmagan. AQShda metropoliten hududida joylashgan turli mahalliy hokimiyat organlari o‘rtasida kuchli hamkorlik mavjud. O‘zbekistonda bunday hamkorlik zaif.

AQSh tajribasini O‘zbekiston sharoitiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirish mumkin emas. Chunki ikki mamlakatda boshqaruv tizimlari, siyosiy va ma‘muriy an'analar, iqtisodiy rivojlanish darajasi va boshqa omillar turlicha. Biroq, AQSh tajribasidan samarali elementlarni olib, O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish mumkin.

O‘zbekiston shahar aglomeratsiyalarini rivojlantirish uchun AQSh tajribasidan quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq: AQShdagi MPOlarga o‘xshash aglomeratsiyalarni rejalashtirish va muvofiqlashtirish uchun maxsus tashkilotlar tuzish. Markaziy byudjet mablag‘lariga qo‘sishma ravishda mahalliy soliqlar, maxsus soliq okruglari, ta’sir to‘lovlari va davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish. Aglomeratsiya doirasidagi shaharlar va qishloq tumanlari o‘rtasida hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirish. Aglomeratsiyalarni rejalashtirish va boshqarish jarayonida jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish. "Aqli shahar" texnologiyalari, barqaror rivojlanish, "yashil" infratuzilma va kompakt shahar rivojlanishi tamoyillarini qo‘llash.

Xulosalar va tavsiyalar. AQSh metropoliten hududlarini rejalashtirish va boshqarish sohasida boy tajribaga ega, bu tajribaning samarali jihatlari O‘zbekiston sharoitiga moslashtirilib qo‘llanishi mumkin.

O‘zbekistonda shahar aglomeratsiyalarini boshqarish tizimi hali shakllanish bosqichida bo‘lib, institutsional, huquqiy va moliyaviy asoslarni takomillashtirish zarur.

AQSh tajribasining asosiy afzallikkari – metropoliten hududlarini rejalashtirish va muvofiqlashtirish uchun maxsus tashkilotlarning mavjudligi, moliyalashtirish mexanizmlarining xilma-xilligi, mintaqaviy hamkorlik va jamoatchilik ishtiroki.

O‘zbekistonda shahar aglomeratsiyalarini rejalashtirish va boshqarishni takomillashtirish uchun quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- Aglomeratsiyalarda mutaxassislar salohiyatini oshirish;
- Aglomeratsiyalarni rejalashtirish va boshqarish standartlarini ishlab chiqish;
- Aglomeratsiyalarni rivojlantirish fondlarini tashkil etish;

- Aglomeratsiyalarni rivojlantirish uchun davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini ishlab chiqish;
- Aglomeratsiyalarni kompleks rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish;
- Transport infratuzilmasini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berish;
- "Aqlli shahar" texnologiyalarini joriy etish;
- Aglomeratsiyalarni rejalashtirish va boshqarish jarayonida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash mexanizmlarini ishlab chiqish;
- Aglomeratsiyalar doirasida jamoatchilik fikrini o'rganish platformalarini yaratish.

Yuqoridagi tavsiyalarning amalga oshirilishi O'zbekistonda shahar aglomeratsiyalarini barqaror rivojlantirishga va aholining turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi. Albatta bu jarayonlarni tez fursatda amalga oshirishni imkonи deyarli yo'q. Ammo, bosqichma bosqish yo'lga qo'yish mumkin deb hisoblaymiz. Umuman olganda hozirgi qilinayotgan islohotlarni jadallashtirish ijrosini ta'minlash muxanizmi yanada takomillashtirilsa 2050-yilga qadar yirik aglomeratsiyalar sonini 3-5 taga yetkazishimiz mumkin bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida urbanizatsiya jarayonlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5623-son Farmoni.
2. Bahl, R., & Linn, J. (2022). Governing and Financing Metropolitan Areas in the Developing Countries. Lincoln Institute of Land Policy.
3. Brenner, N. (2021). New State Spaces: Urban Governance and the Rescaling of Statehood. Oxford University Press.
4. Bureau of Economic Analysis. (2023). Regional Economic Accounts.
5. Hamilton, D. K. (2023). Governing Metropolitan Areas: Growth and Change in a Networked Age. Routledge.
6. Orttung, R. W. (2021). Sustaining Russia's Arctic Cities: Resource Politics, Migration, and Climate Change. Berghahn Books.

7. U.S. Census Bureau. (2023). American Community Survey.
8. U.S. Department of Transportation. (2023). Metropolitan Planning Organization (MPO) Database.
9. UN Habitat. (2024). World Cities Report 2024: The Value of Sustainable Urbanization.